

**BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING HAYKALTAROSHLIK
ORQALI KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY
PEDAGOGIK YONDASHUVLAR**

Panayeva Maloxat Muminovna

*Urganch davlat pedagogika instituti "San'atshunoslik" kafedrasida o'qituvchisi
panayevamalohat@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda haykaltaroshlik fanining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot jarayonida loyiha asosida o'qitish, kompetensiyaviy-amaliy yondashuv hamda reflektiv-ijodiy tahlil metodlari integratsiyasi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar kompetensiyaviy yondashuv mutaxassis tayyorlashda yetakchi metodologik asos ekanligini ko'rsatadi. Tajriba-sinov natijalari asosida mazkur yondashuvlar talabalarning ijodiy faolligi, kasbiy mustaqilligi va pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *tasviriy san'at, haykaltaroshlik, kasbiy kompetensiya, loyiha asosida o'qitish, kompetensiyaviy yondashuv, reflektiv tahlil, ijodiy ta'lim.*

Панаева Малохат Муминовна

Преподаватель кафедры «Искусствоведение», Ургенчский государственный педагогический институт panayevamalohat@gmail.com

Аннотация: *В данной статье освещается роль и значение дисциплины «Скульптура» в развитии профессиональной компетентности будущих преподавателей изобразительного искусства в высших учебных заведениях. В процессе исследования анализируется эффективность занятий, организованных на основе интеграции проектного обучения, компетентностно-практического подхода и метода рефлексивно-творческого анализа. На основе научно-педагогических исследований показано, что компетентностный подход является ведущей методологической основой подготовки специалистов. Результаты экспериментальных занятий подтверждают, что данные подходы являются важным фактором в развитии творческой активности студентов, их профессиональной самостоятельности и педагогических компетенций.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, скульптура, профессиональная компетентность, проектное обучение, компетентностный подход, рефлексивный анализ, творческое обучение.*

Panayeva Malohat Muminovna

Lecturer, Department of Art Studies, Urgench State Pedagogical Institute

Abstract: *This article examines the role and significance of the “Sculpture” course in developing the professional competencies of future visual arts teachers in higher education institutions. The study analyzes the effectiveness of lessons organized through the integration of project-based learning, competency-practical approaches, and reflective-creative analysis methods. Based on scientific and pedagogical research, it is shown that the competency-based approach is a leading methodological foundation for preparing specialists. Experimental results indicate that these approaches play a crucial role in enhancing students’ creative activity, professional independence, and pedagogical competencies.*

Keywords: *visual arts, sculpture, professional competence, project-based learning, competency-based approach, reflective analysis, creative education.*

Bugungi globalashuv va ta’lim tizimidagi islohotlar sharoitida oliy ta’lim muassasalari raqobatbardosh, ijodiy fikrlay oladigan va kasbiy jihatdan yetuk pedagog kadrlarni tayyorlash vazifasini bajarishi lozim. Ushbu jarayon kompetensiyaviy yondashuv asosida amalga oshirilishi pedagogika fanida keng qo’llaniladi. Ayniqsa, tasviriy san’at o’qituvchilarini tayyorlashda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, tasviriy san’at o’qituvchilarini tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’at sohasida ijodiy faoliyat va estetik tafakkur nafaqat shaxsiy badiiy rivojlanish uchun, balki kelajakda pedagog sifatida o’quvchilarga samarali ta’lim berish qobiliyatini shakllantirish uchun ham zarurdir. Bu jarayon haykaltaroshlik va boshqa tasviriy san’at yo’nalishlari orqali talabalarning fazoviy tafakkuri, shaklni idrok etish qobiliyati va amaliy ijodiy ko’nikmalarini rivojlantirish bilan mustahkamlanadi.

Haykaltaroshlik tasviriy san’atning muhim yo’nalishlaridan biri bo’lib, u talabalarda fazoviy tafakkur, shaklni his etish, plastik ifoda vositalaridan foydalanish ko’nikmalarini shakllantiradi. Tadqiqotchilar haykaltaroshlik mashg’ulotlari badiiy tafakkurni rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ta’kidlaydilar [2]. Shu bois bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda haykaltaroshlik fanini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi.

Kasbiy kompetensiya tushunchasi pedagogning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma, malaka, shaxsiy va ijodiy sifatlar majmuini ifodalaydi. Tasviriy san’at o’qituvchisi uchun kasbiy kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o’z ichiga oladi [3]:

Badiiy-estetik kompetensiya – san’at asarlarini tahlil qilish, badiiy didni shakllantirish;

Amaliy-ijodiy kompetensiya – haykaltaroshlik materiallari bilan ishlash, shakl yaratish ko'nikmalari;

Pedagogik kompetensiya – o'quv jarayonini loyihalash va tashkil etish;

Reflektiv kompetensiya – o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyati.

Haykaltaroshlik mashg'ulotlari ushbu kompetensiyalarni kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Haykaltaroshlik fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar

Tadqiqot doirasida haykaltaroshlik mashg'ulotlari loyiha asosida o'qitish texnologiyasi asosida tashkil etildi. Mazkur yondashuv talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy tashabbusi va amaliy faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida talabalar muayyan mavzu asosida haykaltaroshlik loyihalarini ishlab chiqib, g'oyadan tayyor asargacha bo'lgan jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirdilar.

Kompetensiyaviy-amaliy yondashuvda asosiy e'tibor bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llashga qaratildi. Talabalar turli materiallar (gil, plastilin, gips) bilan ishlash, shakl va hajmni ifodalash bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajardilar. Natijada ularning kasbiy malakalari mustahkamlandi [1].

Mashg'ulot yakunida talabalar o'z ishlari va guruhdoshlarining ijodiy faoliyatini tahlil qilish orqali refleksiya jarayonini amalga oshirdilar. Reflektiv yondashuv pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Bu metod talabalar tanqidiy fikrlashini va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Tajriba-sinov ishlari oliy ta'lim muassasasining "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi talabalari bilan olib borildi. Tajriba guruhlarida mashg'ulotlar loyiha asosida o'qitish, kompetensiyaviy-amaliy yondashuv hamda reflektiv-ijodiy tahlil metodlari integratsiyasi asosida tashkil etildi. Natijalar pedagogik tajribalarda qayd etilgan xulosalar bilan mos keladi.

Tajriba yakunida quyidagi natijalarga erishildi:

- talabalarning haykaltaroshlikka bo'lgan qiziqishi oshdi;
- ijodiy mustaqillik va tashabbuskorlik kuchaydi;
- kasbiy kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlari bo'yicha ijobiy o'sish kuzatildi.

Nazorat va tajriba guruhlari natijalarini taqqoslash orqali integratsiyalashgan yondashuvlarning samaradorligi tasdiqlandi.

Shuningdek, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvda talabalarning kasbiy va ijodiy rivojlanishi reflektiv faoliyat orqali mustahkamlanadi.

Talabalar o'z ijodiy ishlarini tahlil qilish va baholash orqali tanqidiy fikrlash va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi, bu esa pedagogik malakaning asosiy komponenti hisoblanadi.

Haykaltaroshlik fanida nazariy va amaliy yondashuvlarning integratsiyasi talabalarning ijodiy va badiiy kompetensiyalarini rivojlantiradi

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalari sharoitida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda haykaltaroshlik fanini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Loyiha asosida o'qitish, kompetensiyaviy-amaliy yondashuv va reflektiv-ijodiy tahlil metodlarining integratsiyasi talabalarning ijodiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Mazkur yondashuvlar tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida samarali pedagogik model sifatida xizmat qilishi mumkin. Kelajakda haykaltaroshlik va boshqa tasviriy san'at yo'nalishlarida kompetensiyaviy yondashuvlarni qo'llash bo'yicha qo'shimcha eksperimentlar olib borish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev S. A. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Г. В. Беда «Основы изобразительной грамоты» – РИП-Холдинг, 2021.
3. Boymetov B. B. Tasviriy san'at ta'limida kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Н. Н. Ростовцев «Методика преподавания изобразительного искусства» – Владос Moskva 2005.
5. Saidaxmedov N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2015.